

TARJIMADA MILLIY KALORITNI QAYTA YARATISH

Tojiboyeva Mohichehra Halimjon qizi

O‘zDJTU “Ingliz tili tarjima nazariyasi” kafedrası

e-pochta: alfidotojiboyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tursunova Nilufar Shadikulovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy kaloritni qayta tiklash mavzusi chuqur tahlil etiladi. Milliy kalorit — xalqimizning an'analari, madaniyati va tarixiy merosining ajralmas qismi sifatida, uning muhim ahamiyati va roli ko'rib chiqiladi. Maqola davomida o'zi milliylikimiz nima ekanligi haqida unga umumiy tushuncha, milliylik va tarjima jarayoni o'rtasidagi muammolar, milliylikimizga xos so'zlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda bunday uslubga mansub so'zlarni tarjima qilishning 3 xil yo'llari haqida fikrlar bildiriladi. Maqola oxirida, milliy kaloritni saqlash va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: milliylik, kolorit, milliy kolorit, mahalliy kolorit, tarixiy milliylik va tarjima, transliteratsiya, analogiya, realiya, so'z va ma'no urg'usi.

Abstract: This article takes an in-depth look at the topic of national calorie recovery. National calorie is considered as an integral part of the traditions, culture and historical heritage of our people, its importance and role. In the course of the article, he is given a general idea of what our own nationality is, the problems between nationality and the translation process, the difficulties in translating words specific to our nationality, and 3 different ways of translating words of this style. At the end of the article, recommendations are given on how to maintain and develop a national caloric intake.

Keywords: There are also national, colouring, national colouring, local colouring, historical nationality and translation, transliteration, analogy, reality, emphasis of words and meanings.

Аннотация: В этой статье подробно рассматривается тема восстановления национальной калории. Рассматривается важность и роль национального калория как неотъемлемой части традиций, культуры и исторического наследия нашего народа. В этой статье он рассказывает о том, что такое национальность, о проблемах между национальностью и процессом перевода, о трудностях, с которыми сталкиваются в переводе слов, относящихся к национальности, и о трёх различных способах перевода слов, относящихся к национальности. В конце статьи даются рекомендации по сохранению и развитию национального калориата.

Ключевые слова: национальность, колорит, национальный колорит, местный колорит, историческая национальность и перевод, транслитерация, аналогия, реальность, словосочетание и значение.

KIRISH

Milliylik – har bir millatning boshqalardan ajralib turadigan, o‘zigagina xos xususiyatlari majmui. Ularni u yoki bu millatning ma’naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xosliklar deb, ikkiga ajratib qarash mumkin.

Ma’naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, yumor xususiyatlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy ro‘zg‘or anjomlari, pazandachilik, ismlar kabilardan iborat. Yana har bir xalqning o‘z tarixi, dini, madaniyati, san’ati, adabiyoti, urf-odati, rasm-rusumlari, an’ana va qadriyatlari; kiyim-kechaklari, pazandachiligi va boshqalar bor. O‘z-o‘zidan, ularning barchasini ifodalaydigan so‘zlari, bu so‘zlar asosida vujudga kelgan iboralari bor. Bularning barchasi milliylik belgilari, uning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Milliy kolorit deb badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar

yig‘indisiga aytiladi. Kolorit lotincha kolor so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, rang, bo‘yoq, manzara ma’nosini bildiradi. Kolorit deganda tasviriy san’atda real hayotni haqqoniy aks etadigan tarjima tili ishlatiladigan ranglarning o‘zaro mutanosibligi tushuniladi. Adabiyotda esa badiiy asarning o‘ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma’lum joyning o‘ziga xos jihatlari ifodasi ko‘zda tutiladi.

Adabiyotshunoslikda milliy koloritdan tashqari mahalliy kolorit degan tushuncha ham mavjud. Mahalliy kolorit – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks etadigan tarjima hisoblanadi. Ana shu milliy kolorit bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamalar realiyalar, boshqacha aytganda, milliy xos so‘zlar deyiladi. Realiza lotincha so‘z bo‘lib, buyumga, narsaga oid degan ma’noni bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYASI

Tarjimada milliy koloritni saqlash masalalarini o‘rganish jarayonida tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasi doirasida oldin izlanish olib borgan shaxslarning metod va uslublaridan, jumladan, H. Hamroyevning “Milliy xos so‘zlar - realiyalar va badiiy tarjima/Tarjima madaniyati E.Ochilovning “Tarjima nazariyasi va amaliyoti ” va “ Badiiy tarjima masalalari”, Qudrat Muasayevning “ Tarjima nazariyasi asoslari”, I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarovlarning “Tarjima nazariyasi”, M. Soipova “Tarjimada milliy o‘ziga xoslikni qayta yaratish/tarjima muammolari asarlaridan foydalanib xulosalar berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Badiiy tarjima o‘z murakkabligi va qiyinlik darajasiga ko‘ra badiiy ijod bilan deyarli bir mavqeda turadi desa ham bo‘ladi. Sababi muallifning iste’dodi va mahorati mevasi bo‘lgan asarni umuman boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qilib qayta yaratish kerak bo‘ladi. Badiiy asarlar tarjimasi uchun til bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik istedodi va badiiyat ilmidan xabardor bo‘lish talab qilinadi. Realistik tarjima talablariga ko‘ra, tarjimon asl nusxani sanat asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual

xususiyatlarni saqlashi lozim. Har bir badiiy asar bir millat vakili tarafidan yoziladi va unda albatta milliylik bo‘ladi. Shunga kora, tarjimashunoslikda milliy

kolorit degan atama mavjud. Badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Badiiy obrazni qayta yaratishda tarjimon ishining birinchi bosqichi obraz

yaratilgan millatning tarixi, ijtimoiy – adabiy sharoitlarini o‘rganishdir. Undan keyingi bosqichi uning mazmunini belgilashdir. Shundan keyin obraz yaratilishi kerak bo‘lgan asliyat tilining vositalarini va uslubiy yo‘llarini tahlil qilishi hamda oxiri ona tilida ifodalashning kerakli til vositalarni qidirib topish bo‘ladi. Ularning to‘g‘ri tarjima qilinishi juda muhimdir.

Milliylik – juda nozik tushuncha. Bu boradagi kichik bir xato ba’zida butun bir millat haqida yanglish tassavvur hosil qilishi mumkin. Masalan: biz o‘zbeklarda kattalarni hurmat qilib “siz” deb chaqirashadi. Lekin ba’zi o‘zbek asarlarining ruscha tarjimasida “sen” deya o‘girilgan. Shu arzimas kichik xato tufayli “O‘zbeklar ham bir birini senlar ekanda” degan tushunchaga olib keladi.

Tarjimashunoslar fikricha, milliy xos so‘zlar tarjimasida eng qiyini u yoki bu tushuncha, narsa va hodisa haqida o‘quvchini ongida to‘liq va aniq tasavvur hosil qilishdir. Aytaylik, Sharq she’riyatini bahor, ko‘klam, gul, bulbul, bo‘ston obrazlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Endi o‘ylab ko‘ringchi, bunday she’rni umuman bahor fasli yo‘q mintaqa xalqlari tiliga qanday tarjima qilish mumkin. Tarjima qildik ham deylik,

asl ma’no saqlanib qoladimi? Zulfiya qalamiga mansub “Kuz” she’rining S.Somova tomonidan ruschaga qilingan tarjimasida ana shunday o‘zaro nomuvofiqlikni ko‘ramiz. O‘zbekistonning quyoshli, yorug‘, hosildor kuzi Rossiyaning rutubatli, yomg‘irli kuziga aylanib qolgan.

Maqol va matallar, iboralar tarjimasida ham milliylikka

urg‘u berish kerak. Masalan, Misrda chaqmoq chaqish hodisasi har ikki yuz yilda bir marta kuzatilar ekan. Ular bizni turmushimizga xos chaqmoqday yigit, yashin tezligida, chaqmoq urdi kabi iboralarni qabul qilolmasligi mumkin. Hatto ranglarni ham milliylikda o‘z o‘rni bor. Masalan: oq-musaffolik ramzi deb ko‘p millatlarda qabul qilingan bolsa, Yaponiya, Hindiston, Xitoyda azadorlik belgisidir. Yashilni Amerikaliklar xavfsizlik belgisi sifatida ko‘rsa, Fransiyada bu jinoyatchilik belgisi hisoblanadi. bu kabi misollar ancha ko‘pdir.

XULOSA

Tarjimada milliy koloritni qayta tiklash, xalqning madaniy merosini va an’analarni o‘z ichiga olgan ahamiyatli jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda, tarjimonlar nafaqat matnni tarjima qilish bilan cheklanmay, balki milliy ruhni, tilning o‘ziga xosligini va madaniy kontekstni ham aks ettirishga harakat qiladilar. Milliy koloritni qayta tiklash, asarlarning o‘ziga xosligini saqlab qolishga, o‘quvchilarni milliy madaniyat bilan tanishtirishga va tarjima qilingan asarlarni o‘z xalqining madaniyati bilan bog‘lashga yordam beradi. Natijada, bu jarayon xalqning tarixiy va madaniy yodgorliklarini, qadriyatlarini avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi. Tarjima orqali milliy koloritni saqlash va rivojlantirish, madaniy almashuv va o‘zaro tushunishni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. - London and New York, 2002.
2. Leviy I. Iskustvo perevoda. Perevod s cheshskogo VI. Rosselsa. – Moskva: “Progress”, 1974.
3. Rossels VI. Skolko vesit slovo (Stati raznix let). – Moskva, 1984.
4. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish (qo‘llanma). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1978.
5. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1983.
6. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2005.
7. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2012.
8. Tarjima san‘ati (Maqolalar to‘plami). 1-6-kitoblar. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1961–1985.
9. Tarjima muammolari (Maqolalar to‘plami). 1-3-kitoblar. – Toshkent – Samarqand, 1991.